

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ALBERT EYNSHTEYN
(1879-1955)

2022

YANVAR

№36



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
7-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-7**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-7**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 36-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 48 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙУЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

| | |
|--|----|
| 1. Lafasova Mavjuda Tulqin qizi MUMTOZ ADABIYOTDA OMONIMLAR VA OMOFORMALARNING QO‘LLANISHI (ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TUYUQLARI ASOSIDA)..... | 7 |
| 2. Matmuratova Shaхло Уразбаевна МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ОБУЧЕНИЯ КОРЕЙСКОМУ ЯЗЫКУ..... | 9 |
| 3. Shoirа Dadaxanova Abdunosirovna ZEBO MIRZO SHE‘RIYATIDA PERIFRAZNING QO‘LLANISHI | 11 |
| 4. Davlatova Shaxlo Ismoilovna O‘ZBEK TILI LEKSIKASINING BOYISHIDA ICHKI VA TASHQI MANBALARNING AHAMIYATI | 13 |
| 5. Niyazova Nilufar Nodir qizi, Nazarova Gulsaro Jumanazarovna INGLIZ TILI FANINI O‘QITISHDA – INNOVATSION METODIKALAR..... | 15 |
| 6. Yusupova Dilafro‘z Bahodirovna, Nasirova Zilola Sultanbayevna INGLIZ TILI DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR..... | 17 |
| 7. Avezova Zilola, Kamolov Shavkat NEMIS TILINI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV | 19 |
| 8. Husenova Nigina Maxmudovna DARSLARNI O‘QUVCHI RUHIYATINI O‘RGANISH ASNOSIDA TASHKIL QILISH..... | 21 |
| 9. Abdullayev Ilyosjon Yangiboyevich, Yusupova Gullola Rustamboyevna “AYLANA STOL ATROFIDA” METODI ORQALI MATEMATIKA DARSLARINI TASHKILLASH | 22 |
| 10. Istamova Dilnoza Sadullayevna BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY VA PRAGMATIK KOMPETENSIYASINING AMALDAGI VAZIFASI | 24 |
| 11. Khasanova Dilafruz Kabuldjanovna IMPORTANCE OF ASSESSMENT ANALYSIS IN IMPROVING LINGUISTIC COMPETENCE OF SECOND LANGUAGE..... | 25 |
| 12. Qurbonov Ravshan Murodovich O‘QUVCHILAR ORASIDA HUQUQBUZARLIK LARNING KELIB CHIQISH SABABLARI..... | 27 |
| 13. Ro‘ziyeva Nodira Xusenovna KIMYO FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING SAMARASI..... | 29 |
| 14. Ro‘ziyeva Nilufar Husenovna TA‘LIM TIZIMIGA E‘TIBOR – KELAJAKKA E‘TIBOR..... | 30 |
| 15. Темирова Рукия Бегиевна МИЛЛИЙ ТАРБИЯ..... | 32 |
| 16. Ахмедов Азамжон Адашбаевич ТРЕБОВАНИЯ К РЕЧИ ПЕДАГОГА И КАЧЕСТВА РЕЧИ | 34 |
| 17. Сулаймонова Вазира Файзуллаевна КОМИЛ ИНСОННИ ТАРБИЯЛАШДА МИЛЛИЙ ТАРБИЯМИЗ СИЙМОЛАРИНИНГ КАРАШЛАРИ..... | 36 |
| 18. Джураева Шахло Нашвановна МАКТАБНИНГ БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРИДА ТЎГАРАК МАШҒУЛОТЛАРИНИ ЗАМОНАВИЙ РУҲДА ТАШКИЛ ҚИЛИШ..... | 37 |
| 19. Жумабоева Мухарам Турабоевна ЦЕЛЬ ИЗУЧЕНИЯ МОРФОЛОГИИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ | 39 |
| 20. Сувонова Сайёра Куйлиевна РУС ТИЛИ ФАНИНИ УКИТИШДА ИНТЕРФАОЛ ЁНДОШУВ..... | 41 |
| 21. Сайфуддинова Оқойим Парпиевна ЛЕКСИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ СЛОВОУПОТРЕБЛЕНИЯ | 42 |
| 22. Худайберганова Қаршигай Нурғалиевна ЁШЛАРДА КИТОБГА БЎЛГАН КИЗИКИШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ..... | 44 |
| 23. Ergashova Muhayyo Valijonovna SEMANTIK MAYDON VA LOKALLIK | 45 |



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

MUMTOZ ADABIYOTDA OMONIMLAR VA OMOFORMALARNING QO‘LLANISHI (ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TUYUQLARI ASOSIDA)

Lafasova Mavjuda Tulqin qizi

Alisher Navoiy nomidagi

O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Lingvistika yo‘nalishi

II bosqich magistranti

Tel:+99899 790 15 22

Annotatsiya. Omonim so‘zlar badiiy asarlarda so‘zlovchi nutqining jozibasini oshirish bilan bir qatorda, ijodkorning so‘z qo‘llash mahoratini ko‘rsatib beruvchi vosita ham hisoblanadi. Mumtoz adabiyotda omonimlar asosida bir necha she‘riy janrlar va badiiy tasvir vositalari, badiiy san‘atlar yuzaga keladi. Shulardan eng keng tarqalgani tuyuq janri va tajnis san‘atidir. Mumtoz ijodkorlar bu janr va san‘at asosida yuksak darajadagi she‘riy ijod namunalarini yozib qoldirganlar.

Kalit so‘zlar: *omonimlar, akustik, grafik, grammatik, omoforma, badiiy adabiyot, Zahiriddin Muhammad Bobur, mumtoz adabiyot, she‘riy janr, badiiy san‘at, tuyuq, tajnis, badiiy mahorat*

Omonimlar – umumiy ma‘no unsurlariga ega bo‘lmagan, tasavvuriy bog‘lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil aytiladigan so‘zlardir. Tilshunoslikda omonim so‘zlarga nisbatan shakli bir xil ma‘nolari har xil bo‘lgan so‘zlar, yoki bir xil shaklag ega bo‘lgan turli xil so‘zlar deb ham ta‘rif beriladi.¹ Omonimlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular akustik va grafik jihatdan bir xil xossa va tizimga ega bo‘lishi lozim. Ya‘ni omonimlar bir xil talaffuz qilinadi va yozilishi ham bir xil bo‘ladi. Masalan, uch (son)- (harakat), qil (ot)-qil (harakat), (yoz)-yoz (harakat) kabi. omonimiya sinonimiyada va antonimiyada bo‘lganidek, minimum ikki til birligi orasida yuzaga keladi. Bunday munosabatlarni belgilashda til birliklarinig har ikki tomoni-ifoda planiham, mazmun plani ham hisobga olinadi. Sinonimiyada va antonimiyada til birliklarining mazmun plani asosga olinadi.² Omonimiya hodisasida sinonimiya va antonimiyadan farqli o‘laroq, ifoda plani yetakchi hisoblanadi.

Leksik omonimiyada omonimlar va omoformalarni farqlash lozim. Omonimlar shakli bir xil, ma‘nolari har xil leksemalar hisoblansa, omoformalar ayrim grammatik shakllardagina teng keladigan leksemalardir. Masalan, tabiiy, ot, bo‘sh kabi so‘zlar omonimlik hodisasiga xos. Sur, o‘t kabi so‘zlar esa omoformalar hisoblanadi.

Omonimlar va omoformalar til va nutqda o‘ziga xos uslubiy vositalar rolini bajaradi.³ Omonimlar va omoformalarning uslubiy vosita sifatida qo‘llanishi nutqiy ta‘sirchanlikni oshiradi. Tuyuq, askiya janrlariga xos so‘z o‘yinini, ya‘ni tajnisni ta‘minlaydi. Badiiy asarga husn bag‘ishlaydi. Badiiy adabiyotda omonim so‘zlar asosida tuyuq janri va tajnis san‘ati yuzaga keladi. Bu ijodkorning so‘z boyligi, so‘z qo‘llash mahorati qay darajada yuqori ekanligini belgilovchi vosita hisoblanadi. Ma‘lumki, tuyuq turkiy xalqlar mumtoz she‘riyatidagi lirik janr hisoblanadi. Tuyuqlar to‘rt misrali she‘r bo‘lib, aruzning ramal bahrida yoziladi. a-a- b-a, a-a-a-a, a-b-v-b tarzida qofiyalandi. Tuyuqning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, unda so‘z o‘yini asosida tajnisli so‘zlardan foydalaniladi va tajnislar qofiyada beriladi. Tajnis san‘ati esa she‘rda shakldosh so‘zlardan foydalanish asosida yuzaga keladi. Zahiriddin Muhammad Bobur tuyuq janrining eng go‘zal namunalarini yaratgan ijodkor hisoblanadi. Uning qalamiga mansub tuyuqlarda

1 Xolmonova Z.T. Tilshunoslikka kirish. T., 2007

2 Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. T., “O‘qituvchi”, 1984

3 Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., “Talqin”, 2005



omonim va omoformalarning o‘z o‘rnida qo‘llanishi shoirning so‘z qo‘llash mahorati naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Quyidagi tuyuqni tahlil qilar ekanmiz, yuqporidagi fikrlarda adashmaganligimizga amin bo‘lamiz.

Qadimni firoq mehnati yo qildi,
Ko‘nglum g‘am-u anduh o‘tig‘a yoqildi.
Holimni sabog‘a aytib erdim, ey gul,
Bilmon, senga sharh qilmadi, yo qildi.

Ushbu tuyuq “yo qildi” so‘zlari tajnisiga asoslangan. Shakdosh hisoblangan “yo qildi” so‘zi har bir misrada alohida ma‘noni ifodalaydi. Shoir birinchi misrada “yo qildi” so‘zi orqali oshiqning firoqda egilgan qaddini tasvirlaydi. Ya‘ni firoq oshiq qaddini yoy kabi egdi (“yo” so‘zi bu o‘rinda “kamon”, “yoy” ma‘nosida qo‘llangan). Birinchi misrada qo‘llangan o‘xshatish san‘ati va shakldoshlikni yuzaga keltirgan so‘z tuyuqda ifodalangan fikrni o‘quvchi tasavvurida aniq gavdalantirishga asos bo‘lgan. Ikkinchi misrada qo‘llangan “yoqildi” so‘zi oshiq ahvolining yanada qiyinlashganini, endi butun vujudi firoq, g‘am-anduh o‘tida, olovida yoqilganligini ifodalaydi. Uchinchi misrada oshiq yorga murojaat qiladi. Holimni saboga aytib, u orqali senga xabar jo‘natdim. Sabo senga ahvolimni senga sharh qildi (aytdi), yo qilmadi. Tahlildan kop‘rinadiki, tuyuqda omonim so‘zlar asosida oshiq ahvoli aniq va ishonarli tasvirlanadi. Bu tuyuqda tajnisni yuzaga keltirgan shakldosh so‘zlarni to‘liq bo‘lmagan omonimlar deb hisoblash maqsadga muvofiq bo‘ladi. ¹Chunki tuyuqda qo‘llangan shakldosh so‘zlar o‘zak holatida omonimlik hosil qilmaydi. Chunki bu so‘zlar ba‘zi grammatik shakllariga ko‘ra bir xillikkka ega. Masalan, birinchi misrada “yo qildi” qo‘shma so‘z, ikkinchi misrada “yoqildi” sodda tub fe‘l va keying misrada “yo qildi” bog‘lovchi+fe‘l.

Zahiriddin Muhammad Boburning navbatdagi ijod namunasini tahlil qilar ekanmiz, bu misralar ham yuqoridagi tuyuqdan badiiy jihatdan mukammallikda kam emasligiga guvoh bo‘lamiz.

Vaslidin so‘z derga yo‘q yoro manga,
Hajr aro rahm aylagil, yoro, manga.
O‘qung etti ko‘p yamon yoro manga,
Marhami lutfing bila yoro manga.

Ushbu tuyuq esa “yoro” so‘zining tajnisiga asoslangan. Bunda “yoro” so‘zlari quyidagicha ma‘no nozikligiga ega. Birinchi misrada “yoro” so‘zi “madorim yo‘q, yaramayman” ma‘nosida qo‘llanadi. Ya‘ni yor vasli haqida bir so‘z aytishga madorim yo‘q”. Ikkinchi misrada esa “yoro” so‘zi yorga murojaat, ya‘ni “ey yor” ma‘nosida qo‘llangan. Ey yor, hajraro menga rahm ayla. Uchinchi misrada shakldosh so‘z “yara”, “jarohat” ma‘nosida qo‘llangan bo‘lsa, so‘nggi misrada marhamating ila mening qalb jarohatimni tuzat, korimga yara ma‘nosini ifodalagan. Ushbu tuyuqda to‘rt misrasida ham shakldosh so‘z qo‘llangan. Va bu to‘rtlikning badiiy mukammalligini va jozibasini oshirishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, omonimlar badiiy asar jozibasini, ta‘sirini oshirish bilan bir qatorda, ijodkorning so‘z qo‘llash mahoratini ham belgilovchi asosiy vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhamad Bobur. Tuyuqlar. www.ziyouz.com kutubxonasi
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. T., “O‘qituvchi”, 1984
3. Xolmonova Z.T. Tilshunoslikka kirish. T., 2007
4. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., “Talqin”, 2005
5. Ne‘matov H. Rasulov R. o‘zbek tili system leksikologiyasi asoslari. Toshkent. O‘qituvchi. 1995
6. Internet manbalaridan foydalanildi.

1 Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., “Talqin”, 2005



МЕТОДЫ И ПРИЁМЫ ОБУЧЕНИЯ КОРЕЙСКОМУ ЯЗЫКУ.

Матмуратова Шахло Уразбаевна
Общеобразовательная школа №28 г. Ургенч
smart886@mail.ru

Аннотация: Обучение корейскому языку представляет собой весьма сложный процесс, поскольку учителю приходится иметь дело с аудиторией, совсем или почти не владеющей корейский язык, для которой родным языком является узбекский или русский. Поэтому методика обучения корейскому языку должна быть максимально приближена к методике обучения иностранному языку.

Ключевые слова: речевая, языковая, социокультурная, компенсаторная, учебно-познавательная, межкультурная, компетенция.

В настоящее время вопросы по методике преподавания корейского языка становятся актуальными. При активной поддержке правительства Республики Корея проводятся многочисленные международные научно-практические конференции, мастер-классы, курсы повышения квалификации, создаются объединения среди преподавателей корейского языка. Такой интерес к изучению корейского языка в практическом и теоретическом планах связан, с возрастающей ролью Республики Корея на международной арене, а также с растущей популярностью современной корейской культуры.

Своеобразной стартовой площадкой в развитии культурного сотрудничества и реализации языковой программы стал Центр Образования Республики Корея в Ташкенте открытый в 1992 году под эгидой посольства Республики Корея.

Благодаря систематической помощи Южной Кореи изучение корейского языка в Узбекистане приобретает беспрецедентный характер. Ныне корейский язык изучается более чем в 200 школах Республики Узбекистан, в языковых центрах, организованных при вузах, колледжах, в областных, городских корейских культурных центрах.

Как и в обучении любому другому иностранному языку, в основе преподавания корейского языка лежат общие принципы и правила, свойственные методике преподавания иностранного языка в целом [1].

Практически в каждой современной программе обучения иностранному языку можно найти цели, направленные на формирование ключевых коммуникативных компетенций: речевой, языковой, социокультурной, компенсаторной, учебно-познавательной.

Речевая компетенция подразумевает развитие коммуникативных умений в четырех основных видах речевой деятельности (говорение, аудирование, чтение, письмо).

Языковая компетенция ставит цель овладеть новыми языковыми средствами (фонетическими, орфографическими, лексическими, грамматическими), освоить знания о языковых явлениях изучаемого языка, разные способы выражения мысли в родном и изучаемом языке.

Социокультурная компетенция приобщает студентов к культуре, традициям и реалиям страны изучаемого иностранного языка, формирует умения представлять свою страну, ее культуру в условиях иноязычного межкультурного общения.

Компенсаторная компетенция направлена на развитие умений выходить из положения в условиях дефицита языковых средств при получении и передаче информации.

Учебно-познавательная компетенция ориентирована на дальнейшее развитие общих и специальных учебных умений, ознакомление с доступными способами и приемами самостоятельного изучения языков и культур, в том числе с использованием новых информационных технологий.

Кроме перечисленных выше компетенций, важным также является формирование межкультурной компетенции. **Межкультурная компетенция** понимается как совокупность знаний, навыков и умений, при помощи которых индивид может успешно общаться с представителями других культур в рамках любого стилистического уровня. Межкультурная компетенция тесно сопряжена с понятием «межкультурной коммуникации», под которой подразумевается адекватное взаимопонимание двух участников коммуникативного акта, принадлежащих к разным национальным культурам [2].



Формирование данных компетенций является общей целью в процессе преподавания любого иностранного языка, в том числе и корейского.

Как известно, современный подход в обучении любому иностранному языку характеризуется стремлением к коммуникативности и системности в деятельности преподавателя и учащегося.

Конечным результатом такого подхода должна стать всесторонне развитая личность, способная использовать иностранный язык как средство общения для решения целого комплекса коммуникативных задач. Поэтому важную роль в преподавании иностранного языка играют средства обучения, в котором и должно найти свое отражение творчество преподавателя.

На сегодняшний день, преподаватели корейского языка имеют большие возможности в проведении успешных занятий, т.е. для достижения результата это возможность использования различных современных учебников корейского языка, учебных пособий, наглядных пособий, использование аудиотехники, компьютерной техники и т.д. Все это способствует быстрому и легкому усвоению нового учебного материала у студентов.

Список использованной литературы

1. М. В. Ляховицкий, «Методика преподавания иностранных языков», М. 1981 г.
2. Тер-Минасова С. «Язык и межкультурная коммуникация».



ZEBO MIRZO SHE'RIYATIDA PERIFRAZNING QO'LLANISHI

Shoira Dadaxanova Abdunosirovna
Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani
34-DIUM o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining ko'zga ko'ringan namoyandasi Zebo Mirzo ijodi, uning ayrim badiiy va lingvopoetik xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: perifraz, poetik ko'chim, she'riy til, she'riy nutq, tasviriy vositalar, tasviriy obyekt.

She'riy til – murakkab, serjilo, serqirra, o'ziga xos nutq. She'riy nutqni bilmay turib, she'rni ham, she'riyatni ham puxta o'rganib bo'lmaydi. She'riy nutq badiiyati, dastavval, uch guruh - poetik ko'chimlar, badiiy san'atlar va she'riy nutq sintaksisiga ajratiladi¹.

Poetik ko'chmlarda, asosan, so'zlarning ko'chma ma'nolari o'rganiladi. Ko'chimlar, odatda, she'riy nutqni boyitadi, unda yangi mazmunni ifodalovchi yangi so'z yoxud so'z birikmasini yaratadi, shoirning tasvir obyektiga munosabatini ifodalashga imkoniyat yaratadi.

Shu ko'chmlardan biri - perifraz. U qorishiq ko'chimlar guruhiga kiradi. Perifraz (yunon. peri-atrof. phrasis-so'zlayman) - majozlarning bir turi - nutqning ifodaviylikini oshirish maqsadida predmet, odam, voqea - hodisalar nomini ularning ma'nolarini, xususiyatlarini ifodalovchi so'z yoki iboralar bilan almashtirish usuli.²

Perifraz narsa va hodisalarning asl nomi bilan yonma-yon ishlatiladi. Misol qilib, Zebo Mirzo ijodiga murojaat qiladigan bo'lsak, bunday ko'chmlarni ko'plab uchratish mumkin.

Z. Mirzoning “Soya” she'rida:

Ammo, sen — azaldan toshdan tug'ilgan,

Tilaysan tosh kabi qotmoqni chag'ir.

She'rining bu satrida “sen” – deb soyaga murojaat qilinmoqda hamda soya perifraz usuli bilan toshga o'xshatilmoqda. Bu esa tabiiy. Chunki soya ham tosh kabi oqmaydi, erimaydi, shu xususiyatlaridan kelib chiqib, soyaning toshdan paydo bo'lgani ta'kidlanmoqda. Ammo “soya” jism qayerda bo'lsa o'sha yerda, tosh esa turgan joyda toki uni biror bir kuch o'rnidan qimirlatmaguncha turaveradi. Soyaning ham orzusi shu - xuddi tosh kabi qotib turmoq. Shoira bu o'rinda soyani toshdan tug'ilgan deb atashidan maqsad – soya garchi insonning ortidan umr bo'yi ergashib yursa-da, hech qachon o'zgaraydi. U - nurning hosilasi. Biroq shoira unga tosh – o'zgaraslik, qattqlik, og'irlik ma'nolarini yuklayapti. Demak, shoira soya deganda, nafsni, nomaqbul do'stni, gunohkor o'zlikni, shaytonni, o'tmishni ifodalash uchun perifraz vositasidan oqilona foydalangan.

”Oyparast” she'rida

Men o'sa boshlayman muttasil,

Maysaman... Daraxtman — zanjirband.

She'rda o'zining o'sa boshlashini birinchi maysaga, undan so'ng daraxtga o'xshatilyapti. Nima uchun aynan daraxtga? Gulga emas? Chunki daraxt ildizi shu qadar keng yoyilganki, go'yoki o'zini tuproqqa “zanjirlab” mustahkamlaydi. Shoira ham shu yerda o'zining holatini daraxtning ildizi misol –zanjirband ekanligi, hech qayerga keta olmasligini nazarda tutmoqda. Ma'lumki, daraxt tuproq bilan bog'langan. Tuproq esa asosni, o'zlikni, tarixni, kelajakni, Vatanni, xoksorlikni ifodalovchi obraz hisoblanadi. Shundan kelib chiqsak, she'rning bosh qahramoni asosdan uzilmay orzular sari intilishini, garchi yetolmasa-da, boshi, ko'zi, xayoli oylarda – yuksak ideallarda ekanini tavsiflaydi. Demak, daraxt, maysa – inson obrazi. Shoira daraxtni zanjirband deya ta'riflar ekan, insonning olam mantiqiy paradigmasidagi o'rniga ham ishora qiladi.

Perifrazning yana bir ko'rinishida boshqa tasviriy vositalar kabi tasvirlanayotgan narsa-hodisa yoki kishilarning muhim tomonini ega va kesimga ajratib ko'rsatishga, unga mantiqiy urg'u berishga xizmat qiladi. Zebo Mirzoning bir necha she'rlarida ega va kesimlar yonma-yon qo'llangan, bir bo'lak ikkinchi bo'lakni to'dirib kelgan va shu orqali she'r g'oyasini jozibali ifodalashga erishgan.

1 E. Xudoyberdiyev adabiyotshunoslikka kirish. -T., Sharq, 2008.

2 T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. -T., O'zbekiston, 2002.



Yana bir she'rida:

Yulduzlar ashkini qusadi osmon,

Shafaq — qonga botgan mag'lub lashkargoh...

“Shafaq” –aslida tonggi quyosh nurlari, parchada esa lashkarlar to'planadigan maskan. “Qonga botgan mag'lub lashkargoh...” – go'yo “yulduzlar” lashkarni jangga kuzatib qolgan”, bu lashkar manzili osmonning bir chekkasida qizarib ko'rinmoqda. Bundan “yulduzlar” ashk to'kmoqda. Muallif “ashk” deya yulduzlarning miltiragan jonsiz nurlarini nazarda tutmoqda. Demak, shoira bu satrlarda istiora, tashbeh, perifrazlarni bir maqsad—o'xshatish va obrazlilik yaratish maqsadida qo'llagan.

Guldondagi gul — qishning husni,

U — deraza ortida bahor.,.

Bu bandda shoira ayolni ichkaridagi erkin o'sayotgan gulga, go'zallik, baxtga eltuvchi bahor fasliga o'xshatmoqda. Oshiq holati esa mantiqan tashqariga—sovuq shamollar daydigan qishga o'xshatiladi. Bu bilan shoira go'yo qish bahorning oshig'i va kushandasi ham ekanligini go'zal tarzda ifodalagan.

Zebo Mirzo she'riyatida qo'llanilgan perifrazlar ma'lum bir obrazlarga ishora qilish bilan birga, misralarni o'zaro bog'lashga ham xizmat qilgan. Bundan tashqari, grammatik vazifani ham bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zebo Mirzo . Yoshlik she'rlar// “Sharq yulduzi” jurn.1989,8-son.78-85-betlar
2. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. –T., O'zbekiston, 2002.
3. E. Xudoyberdiyev adabiyotshunoslikka kirish. -T., Sharq, 2008.



O'ZBEK TILI LEKSIKASINING BOYISHIDA ICHKI VA TASHQI MANBALARNING ANAMIYATI

Davlatova Shaxlo Ismoilovna

Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani
Hazorasp tumani 2-son kasb-hunar
maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tili leksikasining ichki va tashqi imkoniyatlar asosida boyib borishi, uning tarixiy qatlamlari, o'z va o'zlashgan so'zlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, ichki manba, tashqi manba, o'z qatlam, o'zlashgan qatlam, olinma so'zlar, leksika.

O'zbek tilining leksikasi fan-texnika, san'at, ishlab chiqarishning taraqqiyoti bilan bog'liq holda boyib boradi. Bu taraqqiyot natijalari tilning lug'at tarkibida namoyon bo'ladi. Tilning lug'at tarkibi ikki manba asosida boyib boradi:

1. Ichki manba
2. Tashqi manba

O'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida ya'ni yangi so'zlar hosil qilish orqali boyish ichki manba hisoblanadi. O'zbek tili leksikasining ichki imkoniyatlari asosida boyib borish imkoniyatlari juda keng. Ichki manba asosida boyish quyidagi yo'llar bilan amalga oshadi:

1) ilgari qo'llanilib keyin iste'moldan chiqib ketgan so'zlardan yangi tushunchalarni ifodalash uchun foydalanish: *vazir, hokim, viloyat, shirkat, noib, tuman* kabi.

Bunday so'zlar hozirgi lug'at tarkibimizda ko'plab topiladi.

2) so'z yasovchi qo'shimchalar va so'zlarni qo'shish yordamida yangi so'z yasash: *uyali telefon, omonatchi, pudratchi, bojxona* va boshqalar;

3) dialektal so'zlarni faollashtirish ya'ni shevalardan adabiy tilga so'z olish: *mengzamoq* (Xorazm) – *o'xshatmoq, qiyoslamog, tenglashtirmog* ma'nosida. Shevalardan so'z olish, asosan, kasb-hunarga oid so'zlar, adabiy tilda mavjud bo'lmagan so'zlar hisobiga bo'ladi. Masalan, dehqonchilikka oid yaxob (qishda yerlarni sug'orish), qirqim (chorvadorlikda qo'ylarning yungini qirqish) kabilar shevalardan adabiy tilga olingan.

O'zbek tili leksikasi tashqi manba asosida ham boyib bormoqda. Dunyoda boshqa tillardan so'z olmasdan faqat o'z ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta til yo'q, o'zbek tili ham bundan mustasno emas. Faqat ma'lum zarurat tufayli yangi tushuncha ifodalovchi o'z tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab bo'lmagandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir. Bobolarimiz Alisher Navoiy, Mahmud Koshg'ariylar ham bunga da'vat qilishgan.

Keyingi davrlarda tilimizga Yevropa tillaridan bir qancha so'zlar yangi tushunchalar bilan birgalikda kirib keldi. Masalan, *monitoring, diler, skaner* kabi. Bularning hammasi o'zbek tili leksik imkoniyatlarini kengaytirib boyitmoqda.

Boshqa tillardan so'z olish ikki usul bilan o'zlashtiriladi:

1. So'zni aynan olish yo'li bilan
2. Kalkalab olish yo'li bilan

So'zni aynan olish yo'li bilan tojik, arab tillaridan, shuningdek, rus tillaridan, rus tili orqali boshqa Yevropa tillaridan ko'proq o'zlashtirilgan. Masalan, *sinch, devor, rubob, kitob, maktab, daraxt, traktor, sport* kabi.

Kalkalab o'zlashtirishda so'z aynan olinmaydi, balki so'zning ma'nosi o'zlashtiriladi. Ikkinchi tildagi so'zning ma'nosi shu so'zning morfemik tarkibidan qismla qism nusxa ko'chirish orqali ifoda etiladi. Kalkalab o'zlashtirish ham ikki turga bo'linadi:

1. To'liq kalka. Bu usulda o'zlashtirilayotgan so'zning barcha qismlari o'z til materiallaridan tuziladi. Masalan: *polugramatniy- chalasavod*

2. Yarim kalka. Bu usulda o'zlashtirilayotgan so'zning bir qismi aynan saqlanib, bir qismi o'z til orqali beriladi. *Traktorist- traktorchi* kabi.

Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida uning barcha bo'limlarida, jumladan, leksikasida ham o'zgarishlar yuz beradi. Bunda tildagi ba'zi so'zlar eskirib, iste'moldan chiqib ketadi, yoki yangi tushunchalarni nomlovchi so'zlar paydo bo'ladi. Bu tilning qatlamlarini yuzaga keltiradi. Tilimizda zamonaviy qatlam eskirgan qatlam va yangi qatlam mavjud.



Xulosa qilib aytganda, davr taraqqiyotidagi barcha o'zgarishlar tilda namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida har qanday tilning lug'at tarkibida aksini topadi. O'zbek tilining ichki va tashqi imkoniyatlar asosida boyish yo'llarini o'quvchilarga o'rgatish bugungi zamonaviy tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H. Jamolxonov Hozirgi o'zbek adabiy tili, T. 2005
2. N. Erkaboyeva O'zbek tilidan ma'ruzalar matni, T. 2009
3. www.ziyouz.com
4. www.adabiyot.uz
5. www.tadqiqot.uz



INGLIZ TILI FANINI O‘QITISHDA – INNOVATSION METODIKALAR

Niyazova Nilufar Nodir qizi

Xorazm viloyati Xiva tumani 21-sonli umumiy
o‘rta ta‘lim maktabining Ingliz tili fani o‘qituvchisi
Telefon: +998 88 900 32 77
nilufarniazova1@gmail.com

Nazarova Gulsaro Jumanazarovna

Xorazm viloyati Xiva tumani 21-sonli umumiy
o‘rta ta‘lim maktabining Ingliz tili fani o‘qituvchisi
Telefon: +998 90 558 23 29
nazarovagulsora@gmail.com

Annotatsiya: Quyidagi ushbu maqolada Ingliz tili fanini o‘qitishda – innovatsion metodikalar to‘g‘risida ya‘ni – chet tili fani to‘rt aspectga bo‘linishi, chet tilini o‘qitishning nutq faoliyati turlari bo‘yicha, til o‘rganishning boshlang‘ich bosqichi, o‘rta bosqichi, yuqori bosqichi, bugungi kunda ingliz tili o‘qituvchilari Amerika Qo‘shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasidagi innovatsion metodlari haqida ilmiy ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili, ta‘lim, o‘qish, o‘rganish, innovatsion, chet tili, zamonaviy.

Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta‘limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim, litsey, keyinchalik universitetlarda, o‘quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o‘rganishga yordam beruvchi asosiy ma‘lumot to‘plamlari bilan tanishgan holda o‘rganadilar. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Zamon ilgarilab borgani sari har sohada yangilik ko‘payib bormoqda.

Chet tili fani to‘rt aspectga (o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo‘linib, ularning har biri bo‘yicha alohida tushuncha va ko‘nikmalar berilmoqda.

Xususan, chet tilini o‘rganishda bunday axborot – kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o‘rganish va o‘qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o‘rganishning har bir aspect (o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo‘l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o‘rganishning eng muhim qismlaridan biridir.

Chet tilini o‘qitishning nutq faoliyati turlari bo‘yicha ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ularni o‘rgatishda quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

a) O‘qish mexanizmini hosil qilish; b) Og‘zaki o‘qish texnikasini o‘stirish; c) O‘qiganini tushunishga o‘rgatish.

Boshlang‘ich bosqichda o‘qishning asosan ovoz chiqarib o‘qish turiga keng o‘rin ajratiladi. O‘qish uchun ajratilgan matnlar ham eng sodda va oddiydan asta-sekin murakkablashib boradi. Haqiqiy og‘zaki nutq ustida ishlash uchun faqat tayyorgarlik bosqichini o‘taydi. Qolaversa, so‘zlarni chiroyli va ravon o‘qish o‘quvchining shu tilni o‘rganishga bo‘lgan muhabbatini oshiradi. Bundan tashqari o‘quvchilar boshlang‘ich bosqichda;

– The present indefinite tense,

– The past indefinite tense,

– The future indefinite tense kabi fe‘l zamonlarini yaxshi bilishlari va fe‘l shakllaridan ushbu zamonlarda yorqin foydalana oladigan bo‘lishlari talab etiladi. O‘quvchilarga uy vazifasi sifatida matnlar berib boriladi. Matnni tushunganligini tekshirishga mo‘ljallangan mashqlar berilib ular quyidagicha ifoda etilishi mumkin:

Answer the question on the text Khorezm;

Why Khorezm is called like this?

Where is the ancient centre of the city?

How many population is there?

O‘rta bosqichda grammatika birinchi bosqichga nisbatan chuqurlashtirilib o‘rgatiladi, o‘tilgan grammatik qoidalar asosida o‘quvchilarga mashqlar, testlar berilib bilimlari sinaladi. Kompyuter, telefonlardagi til o‘rgatuvchi programmalar ham boshlang‘ich va o‘rta bosqichda til o‘rgatishga



yaxshi yordam beradi. Talk (English speaking practice), Learn English Fast and Easy, Daily English, Learn English (English master), How to speak real English, Learn English language kabilarni misol qilsak bo‘ladi.

Yuqori bosqichda mustaqil ishlash alohida rol o‘ynaydi, ayniqsa chet tili bilan. Bu bosqichda darsga qo‘yilgan talablar oldingi etaplardagidan farq qiladi. Endi dars og‘zaki nutq asosida ko‘rilmaydi, chunki bu bosqichda til materialining ko‘pchilik qismi passiv ravishda o‘rganiladi. Ya‘ni o‘qib tushinish asosiy rol kasb etadi. Tekstlar ham hajmi jihatidan katta, til materiali esa murakkabdir. Reading, speaking, listening mashqlari doimiy o‘tkizib boriladi.

Bugungi kunda ingliz tili o‘qituvchilari Amerika Qo‘shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda: – “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo‘llash uchun hikoyaning boshlanishi o‘qib beriladi qanday yakun topishi o‘quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; – “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) o‘quvchilarga topishmoqlar o‘rgatish Ingliz tilini o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o‘zlariga notanish bo‘lgan so‘zlarni o‘rganadilar va o‘ylab topishmoq javobini topadilar; – “Tezkor javob” (Quick answers) o‘tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi; – “Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) o‘quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o‘yinlardan foydalanish va boshqalar.

Xulosa qilib aytish kerakki, zamonaviy tilni o‘rgatish ko‘proq madaniyatli shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, u o‘z-o‘zini tahlil qilish va yangi bilimlarni tizimlashtirish ko‘nikmalariga ega hisoblanadi. Innovatsion usullar butun tizimni modernizatsiya qilishning ajralmas qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ingliz tili fanini o‘qitishda – innovatsion metodikalar// <https://fayllar.org/ingliz-tilini-oqitishning-innovatsion-usullari.html>
2. Ingliz tili fanini o‘qitishda – innovatsion metodikalar// <https://zenodo.org/record/5863966#.YfleKupBzIU>



INGLIZ TILI DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR

Yusupova Dilafro‘z Bahodirovna

Xorazm viloyati Xiva shahri
6-son IDUMning Ingliz tili fani o‘qituvchisi
Telefon: +998 91 912 15 71

Nasirova Zilola Sultanbayevna

Xorazm viloyati Xiva shahri 6-sonli
IDUMning Ingliz tili fani o‘qituvchisi
Telefon: +998 99 337 83 29
ziloanasirova@gmail.com

Annotatsiya: Quyida berilgan ilmiy maqolada Ingliz tili darslarida interfaol usullardan foydalanish va metodik tavsiyalar ya’ni – o‘yin texnologiyasidan foydalanishning interfaol usullari, bugungi kunda ingliz tili o‘qituvchilari metodik tavsiyalar sifatida chet el pedagoglari tajribasidagi metodlardan foydalanish, Ingliz tili darsini mazmunli o‘tkazish uchun didaktik o‘yinlar haqida qisqacha ma’lumotlar berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili, o‘yin, o‘quvchi, dars, so‘zlar, rasm, metod, usullar.

Bugungi kunda maktablarda interfaol usullardan biri o‘yinlar orqali dars o‘tish an’anaga aylanib bormoqda. Ma’lumki, darsning turli xil o‘yinlar asosida o‘tilishi o‘quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko‘nikmalarini oshirish va kuchli bo‘lishlarini ta’minlaydi. O‘yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o‘quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda barqaror o‘rnini topish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O‘yinlar jarayonida o‘quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg‘ulotga qiziqibroq yondashadi va bemaolol faoliyat ko‘rsatadi. Ta’kidlash lozimki, o‘yin eng avallo, o‘qitishning bir usullaridan biridir. O‘quvchilar o‘yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g‘alaba qozonishga intiladilar, o‘qituvchi ular orqali o‘quvchiga ta’lim – tarbiya ham beradi. Biz bilamizki, hozirgi ta’lim jarayonida o‘quvchi sub’ekt bo‘lishi lozim. Bunda ko‘proq interfaol usullarga e’tiborni qaratish ta’lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo‘yilgan eng muhim talablardan biri o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir.

Bugungi kunda ingliz tili o‘qituvchilari metodik tavsiyalar sifatida Amerika Qo‘shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi metodlardan foydalanishni tavsiya qilishmoqda;

– Creative problem solving, bu usulni qo‘llash uchun hikoyaning boshlanishi o‘qib beriladi qanday yakun topishi o‘quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi,

– Merry Riddles, o‘quvchilarga topishmoqlar o‘rgatish Ingliz tilini o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o‘zlariga notanish bo‘lgan so‘zlarni o‘rganadilar va o‘ylab topishmoq javobini topadilar,

– Quick answers, o‘tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;

– Warm-up exercises, o‘quvchilarni darsga qiziqitirish uchun sinfda har xil o‘yinlardan foydalanish, o‘quvchilarni darsga qiziqitirish uchun sinfda har xil o‘yinlardan foydalanish,

– Pantomime, bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo‘lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, o‘quvchilar, charchagan paytda foydalanilsa bo‘ladi.

Ingliz tili darsini mazmunli o‘tkazish uchun didaktik o‘yinlardan bir nechta misollarni ko‘rib chiqamiz.

Pictionary? ko‘pchilik ingliz tilini o‘rganuvchilar biladigan rasm chizish o‘yini. Bu o‘yin uchun oddiy doska yoki oq magnit doskadan foydalanamiz. Sinfni ikki guruhga bo‘lib olamiz va har bir jamoa uchun doskaning bir tomoniga jadval chizamiz va jamoalarning to‘plagan ballarini shu yerga yozib boramiz, guruhlar o‘zlari uchun nom tanlaydilar. So‘ng har bir guruhdan bitta o‘quvchi doskaga chiqib, teskari o‘girilgan so‘zlardan bittasini tanlaydi va uni doskaga chizib ko‘rsatadi, qolganlar uni topadi. So‘zni birinchi topgan jamoaga ball beriladi.

Back to back? bu o‘yin o‘quvchi xotirasini charxlaydi va eshitish qobiliyatini o‘stiradi. Stolga



rang-barang rasmlarni chap tomoni bilan qo‘yib chiqamiz, ikki o‘quvchini doskaga chiqaramiz va ularning birovidan rasmlarni tanlab olishini so‘raymiz, ikkinchi o‘quvchiga ko‘rsatmasdan ular ikkita bir-biriga teskari stulga o‘tiradilar. Rasmni ushlab turgan bola topishmoq usulda unda nima tasvirlanganini aytadi va ikkinchi o‘quvchi eshitgan so‘zlarni qog‘ozga tushiradi. Eshitganlarini yaqqol va aniq tushirsa o‘quvchi g‘olib bo‘ladi. Bu o‘yin yuqori sinflar uchun ham juda qiziqarli.

Bingo? bu o‘yinni o‘ynash uchun biroz tayyorgarlik ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Ammo u juda qiziqarli. 4x4 shaklda bingo qog‘ozlarini tayyorlang va har bir katagiga so‘zlar yozing hamda o‘quvchilarga tarqating. So‘zlar takrorlanmasligi va siz ularni o‘qib berganingizda o‘quvchilar borlarini belgilashlari kerak. Sahifadagi barcha so‘zlarni birinchi bo‘lib belgilagan o‘quvchi g‘olib sanaladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Ingliz tilini o‘rganish bugungi taraqqiyotning asosiy shartlaridan biridir. Binobarin, yosh avlod o‘rtasida ushbu fanga bo‘lgan qiziqishni nafaqat oshirish, balki ularning bu yo‘ldagi izlanishlarini rag‘batlantirish ota-onalar qatori pedagoglar zimmasiga ham mas’uliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ingliz tili darslarida interfaol usullardan foydalanish// <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/4779.htm>
2. Ingliz tili darslarida interfaol usullardan foydalanish// <https://hasanboy.uz/ingliz-tili-darslarida-qiziqarli-oyinlar/>
3. Ingliz tili fanini o‘qitishda – innovatsion metodikalar// <https://zenodo.org/record/5863966#.YfleKupBzIU>



NEMIS TILINI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV

Avezova Zilola,

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani
27-maktab nemis tili fani o‘qituvchisi

Kamolov Shavkat,

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani
27-maktab nemis tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikkinchi til sifatida ingliz tilini ma’lum darajada o‘zlashtirgan maktab o‘quvchilariga nemis tilini kommunikativ yondashuv asosida o‘rgatish prinsiplari haqida so‘z yuritiladi

Kalit so‘zlar: kommunikativ, kompetensiya, kommunikativ-kognitiv prinsp

Yosh avlod ta’lim tarbiyasi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida katta e’tibor qaratib kelingan masalalardan biridir. Kelajak avlod har tomonlama barkamol tarbiyalanishi, har sohada yetuk mutaxassis bo‘lishi uchun chet tillarini mukammal o‘rgatishimiz, dunyoqarashini kengaytirishimiz lozim.

Xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchining nutqiy faoliyati kommunikativ kompetensiyasini har tomonlama rivojlantirishga asos bo‘la oladi. Ma’lumki, kommunikativ kompetensiya-ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta horijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Hech kimga sir emaski, mamlakatimiz o‘quvchilarining ko‘pchiligida chet tillari orasida ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor kuchli. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, nemis tilini o‘rganayotgan to‘rt kishidan uchasi ingliz tilini birinchi fan sifatida o‘rgangan va olingan tajriba, bilim, ko‘nikmadan foydalangan holda ikkinchi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 14-son, 230-modda, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qaroriga 3-ilova «Sciense anda chet tiliga o‘tilishi va uni o‘rganishni osonlashtirishi mumkin. Aynan shunday holatlar maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiya olgan o‘quvchilarning maktab yoshiga yetib, maktabga qabul qilinganlarida yuz beradi. Bunday hallarda ingliz tilini ma’lum darajada o‘rganib kelgan o‘quvchilarni nemis tili darslariga qiziqtirish uchun ma’lum bir prinsiplarga e’tibor berish lozim. Ingliz tilidan keyin ikkinchi til sifatida nemis tilini o‘rganayotganda, har qanday chet tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan umumiy qoidalarga tayanish kerak. Ushbu prinsplar ko‘p o‘xshashliklarga ega bo‘lishiga qaramasdan, ular ikkinchi tilga nisbatan qandaydir modifikatsiyaga ega, masalan, o‘quv sharoitlarning o‘ziga xosligi, uchta tilning o‘quv jarayoni bilan aloqada bo‘lishi (ona tili, ingliz tili va nemis tili) va h.k lar. Har qanday chet tilini o‘qitishda bo‘lgani kabi, kommunikativ maqsadlar ham o‘rganishga umumiy uslubiy yondashuvni oldindan belgilab beradi. Ammo o‘quvchilar ingliz tilini o‘rganishda allaqachon tajribaga ega bo‘lganligi sababli, ular ingliz va nemis tillarini o‘ziga xos jihatlarni taqqoslashga intilishadi. Shuning uchun ikkinchi chet tilini o‘rganishda umumiy uslubiy prinspni kommunikativ-kognitiv deb ta’riflash mumkin, bu yerda kognitiv tomon kommunikativ tomonga bo‘ysunadi va sizga o‘rganishni yengillashtiradigan har qanday o‘zshashlikni topish yoki aralashishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun farqlarni aniqlash kerak bo‘lgan joyda o‘zini namoyon qiladi. Umuman olganda, ingliz tilini ma’lum darajada o‘zlashtirgan o‘quvchilar nemis tilini o‘rganishni boshlashganda bu ikki til orasidagi quyidagi o‘xshashliklarni sezishadi:

1. Har ikki til ham lotin harflaridan foydalanadi.
2. Lug‘at va so‘zlarning ishlatilish sohasi;
3. Oddiy jumalarning tuzilishidagi o‘xshashlik
Deutsch: Er spricht Deutsch. English: He speaks German.

4. Zamon shakllarini o‘rganishda (fe’ning 3ta asosiy shaklidan va yordamchi fe’ldan foydalanish haben=to have); Deutsch: Kammen-kam-gekammen English: Come-came-come Deutsch: Bringen-brachte-gebracht English: bring-brought-brought Deutsch: Sprechen-sprach-gesprochen English: speak-spoke-spoken « Sciense and Education » ammo shuni bilish muhimki, har bir yangi chet tilini o‘rganish jarayonida masalan, ingliz orqali nemis tilini o‘rganish paytida o‘quvchilar quyidagi ba’zi qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin:



- Talaffuz qilganda;
- O‘qish qoidalarida;
- Intonatsiyada;
- Ingliz va nemis tillaridagi ba’zi so‘zlar bir biriga o‘xshash talaffuz qilinadi, ammo har hil ma’noga ega bo‘lib, «tarjimonning yolg‘onchi saytlari» deb ataladi;
- So‘z tartibida;
- Fe’llarning biriktirilishida;
- Murakkab grammatik qurilishlarda va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shofqorov, A.M , Shayxislamov, N. (2020). Ona tili ta’limda lingvistik mashqlarning o‘rni. Science and Education, 1 (special Issue 2).
2. Ziyonet.net sayti



DARSLARNI O'QUVCHI RUHIYATINI O'RGANISH ASNOSIDA TASHKIL QILISH.

Husenova Nigina Maxmudovna

Kogon tumani 1-umumta'lim maktabining

Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Telefon: +998914466249

Buyuklarimiz ta'kidlaganlaridek “mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bogliq ekanligini hamisha yodda tutishimiz kerak”. Shu sababli ham birinchi navbatda ta'lim mazmuni, uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki ularni kelajak hayotga qo'llay olish masalasi bugungi davr oldiga ulkan va mas'uliyatli vazifa qilib qo'yildi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2017 yilning 7 fevralidagi PF 4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”da jamiyatning barcha bo'g'ini rivojiga alohida e'tibor qaratilgan, shu jumladan xalq ta'limi tizimiga tegishli 16 ta bandda ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasida tashkil etilishi va amalga oshirib borishini ta'minlash mazkur sohadagi eng dolzarb masala qilib belgilangan. Qolaversa, Vazirlar Mahkamasining 2017 - yil 15-martdagi “Umumiy o'rta ta'lim tog'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori, shuningdek 2017 - yil 6-apreldagi “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 187-sonli qarorlari asosan kompetensiyaviy ta'lim berishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchini dars jarayonida olgan bilim, ko'nikma va malakasini hayotda uchrashi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatda qo'llay olish layoqatini shakllantirishga qaratilgan. Bunga erishish uchun esa biz pedagoglar awalo, o'quvchi ruhiyatini o'rganib, shunga asosan ta'lim berish usullarini tanlashimiz juda muhim.

Buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino o'zining “Tib qonunlari” asarida yosh bolalarni tug'ilganidan boshlab voyaga yetguncha ma'lum tartibda tarbiyalab boorish lozimligini qayd etib o'tgan. Mutafakkir bolalami qanday o'qitish va nimalarni uqtirish usullari haqida muhim fikrlarni olg'a suradi. Ibn Sinoning “Tadbir-ul manozil” asaridagi maxsus bo'limda, bolani o'qitishda qanday didaktik yondoshish zarurligi haqida so'z yuritilgan. Uning ta'kidlashicha:

- Bolani birdan kitobga jalb etib qo'ymaslik kerak.
- O'qitish asta-sekin osondan qiyinga o'tish yo'li bilan olib borilishi lozim.
- O'quvchilar bilan amalga oshiriladigan tarbiya ularning yoshiga mos bo'lishi shart.
- O'qitish jamoa tarzida uyushtirilishi darkor.
- Bolaning mayli va qobiliyatini hisobga olgan holda olib borilishi kerak.
- Jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borilishi zarur.

Jarayon samarali kechishi uchun Ibn Sino o'qituvchining oldiga ham bir nechatalabni qo'yadi. Uning fikricha:

- tarbiyachi bolalar bilan muomalada bosiq bo'lishi kerak.
- Pedagog o'quvchilar ta'limni qanday o'zlashtirayotganini kuzatib borishi lozim.
- Pedagog bolalarni tarbiyalashda tegishli jazo choralari qo'llash, o'tilganlarni takrorlashga majbur qilish orqali ularni fanga qiziqtirishi kerak.
- Pedagog fikrini o'quvchiga bayon qilishdan oldin masalaning mohiyatiga o'zi tushunib olishi, uni qisqa, aniq, adabiy tilda tushuntirishi, ko'p gapirishdan qochishi lozim.
- Har bir fikr haqiqat bilan tasdiqlanishi, bolalarda hissiyot uyg'otadigan bo'lishi lozim.

Har bir darsda o'qituvchi bosh figura hisoblanadi. U axborot berish, tezroq o'qitish bilan ovora. Lekin o'quvchining yangilikni qabul qilish darajalari har xil, xohish-istaklari turlicha, ular sust qabul qiluvchi, quloq soluvchi. Bu ularning o'quv jarayonidagi mas'uliyatini, javobgarlik hissini susaytiradi. Demak, ular mustaqil fikr yurutish, mushohada qilish, xulosa chiqarishdan yiroq.

O'quvchi ruhiyatini o'rganish asnosida darslarni tashkil qilish – ko'zlangan natijaga erishishga albatta yordam beradi.



“AYLANA STOL ATROFIDA” METODI ORQALI MATEMATIKA DARSLARINI TASHKILLASH

Abdullayev Ilyosjon Yangiboyevich
+998941122525

Yusupova Gullola Rustamboyevna
+99897 533 37 85

Xorazm viloyati Yangibozor tumani
31 – maktab matematika fani o’qituvchilari

Annotatsiya: ushbu maqolada matematika darslarining zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish haqida yoritilgan.

Kalit so’zlar: steam, doira stol atrofida o’yini, didaktik o’yini.

STEAM-hozirgi kunda dunyo ta’lim tizimining eng asosiy urf bo’lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi.

Bu metodika ta’limni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo’llay olish ko’nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. STEAM bu maktabda va maktabdan tashqarida loyiha va o’quv – tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir.

Ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog’liqligini ko’rsatib o’rgatiladi.


Fanlarni kundalik hayot bilan bog’liqligini ko’rsatishdan tashqari, texnologiya o’quvchilarning ijodkorligini ham ko’rsatib berishi mumkin. Ushbu yondashuv o’quvchilarning faoliyatiga bir qancha vazifalarni taqdim etadi, o’quvchi ularni hal qilishida ijodkorligini namoyon qilishni o’rganadi. Bunday vazifalar yordamida o’quvchi g’oyalarni nafaqat o’ylab topadi, balki ularni kundalik hayotida amalga oshirishni ham o’rganadi. Shu tariqa, o’quvchi o’z faoliyatini oldiga qo’yilgan vazifalari va mavjud imkoniyatlari doirasida hal qilishga o’rganadi.

STEAM yondoshuvi olingan bilimlarni haqiqiy hayotga mahorat bilan qo’llashni o’rgatishdir.

“DUMALOVCHI QOR UYUMI” metodi

Dumalovchi qor uyumi metodi o’quv mashg’uloti o’tkazish metodining ramziy nomi bo’lib, ish qo’yilgan muammo ustida mulohaza yuritib ko’rish uchun o’quvchilarga vaqt, tegishli manbalar, tarqatma materiallar berishdan boshlanadi. Bu metod guruhning har bir a’zosiga butun guruhning bilimlari va tajribalaridan foydalanib, o’zining keng qamrovli nuqtayi nazarini bayon etishni nazarda tutadi. Buning uchun talabalar 4 ta kichik guruhlariga ajratiladi. Muhokama qilib chiqish uchun barcha guruhlariga bitta topshiriq beriladi. Har bir kichik guruh topshiriq ustida alohida ishlaydi. So’ngra birinchi bilan ikkinchi va uchinchi bilan to’rtinchi guruhlar muammo ustida birgalikda muhokama yuritishadi. Oxir oqibatda barcha kichik guruhlar birlashib, butun yaxlit guruh bo’lib qo’yilgan muammo yechimini hal etishning turli yo’llarini, variantlarini muhokama qilishadi. Bunday muhokama jarayonida o’quvchilarning qo’yilgan muammo yuzasidan bilimlari chuqurlashib, oydinlashib, boyib, keng qamrovli bo’lib boradi.

Dumalovchi qor uyumi texnologiyasi





Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqishga e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul o'quvchilarda mustakil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. **“Aylana stol atrofida” metodi asosida ishlash qoidalari**

1. Birgalikda o'rganish usuliga asoslanadi.
2. Qog'oz va har xil rangdagi qalamlar kerak bo'ladi.
3. Guruh a'zolari atrofida qog'oz va qalam surilib boriladi.
4. Ishtirokchilar o'rta tashlangan mavzuga oid yuqoridagi masala asosida masala tuzadi
5. Guruhdoshiga uzatadi.
6. U ham tuzgan masalani boshqa rangdagi qalamda yozib keying ishtirokchiga beradi;
7. Ranglar turli bo'lishi har bir ishtirokchining shaxsiy fikrini, masala yuzasidan ishtirokini aniqlash uchun kerak bo'ladi.
8. Fikrlar jamlanib, muhokama qilinib masalaning yechimi topiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Modulli o'qitish texnologiyalari. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2007
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Parдав A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: —Iste'dodl jamg'armasi, 2008.



**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY VA PRAGMATIK
KOMPETENSIYASINING AMALDAGI VAZIFASI**

Istamova Dilnoza Sadullayevna

Ingliz tili va adabiyoti kafedrası
o'qituvchisi Navoiy Davlat Pedagogika
Instituti, Navoiy. O'zbekiston
+998907302324

Annotatiya: Maqolada pedagogik institutda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va pragmatik kompetensiyasining amaldagi vazifasini tahlil qilish ko'rib chiqilgan. Tahlil qilish orqali kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlari tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: pragmatik, kompetensiya, bo'lajak o'qituvchi, texnologiya

O'zbekistonning chuqur integratsiyalashuvining hozirgi tendentsiyasi davlatlararo o'zaro ta'sirning barcha sohalariga hamrohlik qilish uchun pedagogika sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash vazifasining dolzarbligini belgilab beradi. Bundan tashqari, u nazariya, metodologiya va texnologiyani chuqur bilishdan tashqari, u ilmiy bilimlarning turli sohalarida keng bilimga ega bo'lishi va madaniyatlararo muloqotning o'ziga xos muammolarini hal qilish jarayonida yuqori harakatchanlikka ega bo'lishi kerak.

Maqolaning maqsadi - pedagogik universitetda pragmatik kompetensiyani, bo'lajak pedagoglarda shakllantirish tajribasini tavsiflashdir.

“Pragmatik kompetensiya -ma'lum bir illyuziyalarni amalga oshirish uchun ma'lum bir tilda mavjud bo'lgan lingvistik resurslarni bilish, nutq harakatlarining ketma-ket jihatlarini bilish va nihoyat, ma'lum bir tilning lingvistik resurslaridan tegishli kontekstli foydalanishni bilish tushuniladi.”

O'zbekistonda ta'limning o'tish jarayoni o'quv dasturlarini talabalarning mustaqil ishlarining ulushini oshirib, faol va interaktiv o'qitish usullaridan foydalanish imkoniyati nuqtai nazaridan oliy o'quv yurtlarining scamper texnologiyasi misolida o'zgartirishga imkon berdi.

Pragmatik kompetensiyani shakllantirish turli xil aloqa vaziyatlarida aloqani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, ingliz tilini o'qitish jarayoni ushbu vaziyatlarni yaratish va shunga mos ravishda talabalarning nutq faoliyatini faollashtirish bilan birga bo'lishi kerak. Ushbu vazifalar o'qitishning interaktiv metodlari yordamida optimal tarzda hal etiladi.

O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga ta'limning interaktiv shakllarini joriy etish uning ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning an'anaviy shakllarini o'zgartirish bilan birga keladi. Shuning uchun ulardan foydalanish talabalarning qoniqishini nazorat qilish va muassasa professor-o'qituvchilarining reaksiyasini o'rganish bilan birga bo'lishi kerak. O'qituvchi o'z madaniyati uchun begona xatti-harakatlarning stereotiplarini o'rnatmasdan, o'quvchilar muhitida ichki ziddiyatni keltirib chiqarmaslik, kelajakda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun pragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun an'analar va yangiliklarni uyg'un ravishda birlashtirishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. D.S.Istamova Technology of development of socio-cultural competences in students in preparation for pedagogical activity //2021// Philadelphia, USA
2. D.S Istamova Technology of Development of Pragmatic Competence of Future Teachers (On the Example of Scamper Technology)
3. Абдуллаева, Ш. А. (2019). Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития*,
2. Лутфиллаев, М. Х., & Абдуллаева, Ш. А. (2019). Вопросы разработки и внедрения программного обеспечения педагогической диагностики (на примере высших учебных заведений республики Узбекистан). *Образовательные ресурсы и технологии*, (3 (28)).
4. Рузметова, С. Т., & Абдуллаева, Ш. А. (2021). Использование цифровых технологий в образовании. *Проблемы современной науки и образования*, (3 (160)), 33-35.



IMPORTANCE OF ASSESSMENT ANALYSIS IN IMPROVING LINGUISTIC COMPETENCE OF SECOND LANGUAGE

Khasanova Dilafruz Kabuldjanovna

EFL teacher of secondary school №16 of Ferghana city

Annotation: This article is devoted to the problems and the importance of assessment analysis in improving linguistic competence of second language. Besides it is connected with school practice.

Key words: assessment, linguistic competence, second language, educational practise, appropriate vocabulary, accurate grammar

Assessment is popular and sometimes misunderstood term in current educational practice. The term of assessment has been popularized in Uzbekistan over a decade but it is frequently misinterpreted by some educational settings. It is important to understand the concrete meaning of assessment in teaching and learning languages yet it is likely to guarantee learners' success in acquiring language.

Having considered this point, assessing learner's lexical knowledge can be problematic issue because of less attention while integrating four skills to overall second language ability. This tend to be the mainly because acquiring vocabulary is demanding and arduous process for second/ foreign language learners whereas for native speakers seem to be a piece of cake since they rapidly enlarge lexicon in childhood.

Placement tests come in many varieties- assessing comprehension and production, responding through written and oral performance, open-ended and limited responses, selection (e.g., multiple choice) and gap-filling formats-depending on the nature of a program and its needs [1]. The placement test that he passed was a mixture of productive skills which combined speaking and reading skills, vocabulary and grammar sub skills. According to his opinion, the placement test was designed to determine whether students could comprehend small texts and talk to somebody about daily life topics such as hopes, interests, family, friend and study. Importantly, he was tested whether he could use appropriate vocabulary and accurate grammar while they were responding the questions.

Learner learning background profile

During his first academic year, he studied productive and receptive skills and grammar and vocabulary. At the end of the year, he was supposed to complete B1 level and take the placement test again. Therefore, he took the placement test which consisted of productive and receptive skills as well as grammar and vocabulary to measure what he learnt. His results were excellent from productive and receptive skills but grammar and vocabulary were average. From his perspectives, his speaking and writing were subjectively marked as his teacher assessed his speech utterances based on the fluency and cohesion. He knows a great deal of vocabulary but he does not know how to use properly. In terms of written documents particularly the letter that he wrote was assessed based on the task achievement and cohesion. He advocated that he was not sure if he used appropriate vocabulary in both oral and written documents. When it comes to grammar and vocabulary placement test, although, he achieved acceptable score in grammar test, he struggled with vocabulary test since he knew the individual meaning of words. He acknowledged that he had difficulty to put words, collections, idioms, phrasal verbs and academic vocabulary in right place because he usually learns vocabulary itself, not paying attention to the contextual meaning of words. For this reason, he had problems with figuring out the contextual meaning of words.

Reliability of the test cannot be realistic yet the test has been designed for talented group of students, as I mentioned above and the test was taken just only from that group. It is always acknowledged that test should be meaningful, reproducible and measurable. Whenever a test is administered, the test user would like some assurance that the results could be replicated if the same individuals were tested again under similar circumstances. This desired consistency (or reproducibility) of test scores is called reliability [2].

Having taking this statement into consideration, when the same test is given to the same the learners for second time, the results are the same as the previous ones and then we might ensure that



the test is reliable but if there is huge disparity between new and old ones, we cannot consider this test is reliable. As regards final vocabulary test, it is awkward to justify as a reliable test on account of designing for specific purpose. In order to make test to be reliable, it is highly recommended to pilot with other groups and then compare findings. Sometimes the nature of the test itself can cause measurement errors. Tests with multiple choice items must be carefully designed to include a number of characteristics that will guard against unreliability. For example, the items need to be evenly difficult, distracters need to be well designed, and items need to be well disturbed to make the test reliable [4].

If we look at the validity of the final vocabulary test, the test should measure what has been taught. Validity in testing and assessment has traditionally been understood to mean discovering whether a test measures accurately what it is intended to measure [3]. In other words, while assessing learners' vocabulary knowledge, we ought to design a test and measure them what they have been taught. In my learner case, he learnt vocabulary about environment and family from both receptive and productive skills. That is why he has been assessed based on what he has learnt in the course.

REFERENCES:

1. Brown, H. D. *Language Assessment. Principles and Classroom Practices*, NY, Pearson Education, 2011.
2. Crocker, L. and Aligina, J. *Introduction to Classical and Modern Test theory*, Orlando, FL: Holt, Rinehart and Winston, 1986.
3. Hughes, A. *Testing for language teachers*. Cambridge, MA: Cambridge University Press, 1989.
4. Richards, J. C. The role of vocabulary teaching, *TESOL Quarterly*, 1976.



O'QUVCHILAR ORASIDA HUQUQBUZARLIK LARNING KELIB CHIQISH SABABLARI.

Qurbonov Ravshan Murodovich

Kogon tumani 1-umumta'lim maktabining
MIG' va Huquqshunoslik fani o'qituvchisi
Telefon: +998905147685

Annotatsiya: maqolada o'quvchilar orasida huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: huquqbuzarlik, o'smirlik davri, ota-ona tarbiyasi, huquqiy tarbiya.

Buyuklarimiz ta'kidlaganlaridek “mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bogliq ekanligini hamisha yodda tutishimiz kerak”. Shu sababli ham birinchi navbatda ta'lim mazmuni, uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki ularni kelajak hayotga qo'llay olish masalasi bugungi davr oldiga ulkan va mas'uliyatli vazifa qilib qo'yildi.

O'sib kelayotgan avlod huquqiy ta'lim - tarbiyasining xususiyatlari yangi jamiyatning o'z xarakteri, turmush tarziga asoslanadi.

Avvalo, huquqiy ta'lim - tarbiya yangi insonni kamol toptirishning samarali vositasi hisoblanadi. Qonunlar jamiyatimizning eng muhim axloqiy normalarini ifodalash bilan ayni bir vaqtda ushbu normalarning nafaqat e'lon qilinishi, shu bilan birga real ta'minlanishining dalili bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan olganda huquq qudratli tarbiya vositasi hisoblanadi. Huquqiy ta'lim - tarbiya yana shuning uchun ham muhimki, jamiyat qonunlari o'zining dolzarbligini saqlab qoladigan ilg'or va insoniy qoidalarni o'z ichiga olgan bo'ladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, huquqbuzarliklarni sodir etadigan yoshlarning huquqiy ongi ularning boshqa tengdoshlari huquqiy ongidan farq qiladi. Huquqbuzarlarning qonunni yaxshi bilaman degan fikri ko'pincha noto'g'ri fikr bo'ladi:

birinchidan, birinchi jinoyatgacha ularning huquqiy xabardorligi tengdoshlarining yaxshi xulq atvor haqidagi xabardorlikdan unchalik farq qilmaydi;

ikkinchidan, bunday bilimlar tasodifiy va bir tizimga solinadi.

Odatda, yosh huquqbuzarlar oilalarida va ular asosan bo'sh vaqtni birga o'tkazadigan do'stlari davrasida noto'g'ri qarashlar eng avjiga chiqqan bo'ladi. Bunda o'smirlar axloqqa zid muhitga duch kelganida va uning qarashlarini qabul qilib olganida ular ko'pincha axborotning rasmiy kanallaridan psixologik jihatdan “uzilib qolgandek” bo'lishadi yoki bunday axborotga nisbatan o'zlashtirib olgan noto'g'ri fikrlari nuqtai nazaridan yondoshadilar. Shuning uchun yoshlar bilan olib boriladigan ish shu bilan birga ularga salbiy ta'sir ko'rsatadigan manbalarni, tegishli salbiy pozitsiyalar mazmuni va dalillarini aniqlash, ishonchli qarshi dalillar va qonunni himoya qiluvchi dalillarni tanlash, o'smirlar uchun noxush ijtimoiy vaziyatni o'zgartirishdan iborat bo'lishi kerak. Huquqiy ta'lim - tarbiyani faqat darslar, suhbatlar, ma'ruzalar o'tkazish yo'li bilangina amalga oshirib bo'lmaydi. Bu ish tarbiyachilarning o'z tarbiyalanuvchilari hayotiga faol aralashuvini ham taqozo etadi.

Huquqiy ta'lim-tarbiya bu barcha fuqarolarning huquqiy savodxonligini ta'minlashning asosi hisoblanadi.

Ma'lumki, sog'lom oilada munosabatlar sog'lom asosga quriladi. Ota-ona o'rtasidagi samimiy munosabat, ulardan har birining o'z huquq va majburiyatlarini sidqidildan bajarishi, ayni paytda oilaning umumiy manfaatlari uchun har qanday qiyinchilikka tayyor bo'lishi farzandlar uchun katta maktab vazifasini o'taydi. Bunda, ayniqsa, bolalarning barcha qiziqish va intilishlariga o'z vaqtida to'liq javob berilishi, ularning qarovsiz qoldirilmasligi o'ta muhim rol o'ynaydi. Chunki murg'ak qalbida, ongu shuurida paydo bo'lgan savollarga vaqtida javob topolmagan bola ularning yechimini o'zicha qidirishga - kerakli-keraksiz, o'rinli-noo'rin ishlarga qo'l urishga odatlanib o'sadi. Yoki qarovsiz qoldirilgan bolaning o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini mustaqil hal etish uchun o'z bilganicha harakat qilishdan boshqa iloji qolmaydi. Bunda, tabiiyki, yetarlicha hayotiy tajriba va ko'nikmaning yo'qligi tufayli nima to'g'ri-yu, nima noto'g'ri ekanini bilmaydigan bola xato yo'ldaligini hadeganda anglab yetmaydi. Bu xatolar haqida unga vaqtida aytilib, kerakli



nasihat va ko‘rsatmalar berilmasa, bunday xatti-harakatlar uning uchun odatga aylanib qoladi. Tarki odat esa, xalqimiz ta‘biriga ko‘ra, amri maholdir. Shu tariqa, tarbiyaning noto‘g‘riligi oqibatida bir bolaning umri xazon bo‘ladi - u el-yurt uchun foydasi tegadigan hayot yo‘liga emas, balki jinoyat yo‘liga kirib ketganini bilmay qoladi.

Shuning uchun ham voyaga yetmaganlarning ta‘lim-tarbiyasi, ularning ongu tafakkurini huquqiy madaniyat tamoyillari asosida shakllantirish masalasi, ayniqsa, bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bizning mamlakatimizda voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, bu yo‘nalishda huquqiy targ‘ibot-tashviqot, ma‘naviy-mafkuraviy tarbiya ishlarini samarali olib borish bo‘yicha muayyan ishlar olib borilyapti.

Qolaversa biz pedagoglar ham ta‘lim berish bilan bir qatorda, darslar davomida o‘quvchilarning tarbiyasiga e‘tiborimizni yo‘naltirishimiz, ayniqsa o‘smirlar xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida anglab yetib, maktab psixologlari, ota-onalar, mahalla faollari, profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda ishlab, o‘quvchini hayotga to‘g‘ri yo‘naltira bilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Samarov R. „Xavfsizlikning metodologik asoslari.“ Toshkent – 2010 y.
2. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazaryasi. T. 2018. 173-bet.



KIMYO FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING SAMARASI

Ro'ziyeva Nodira Xusenovna

Kogon tuman 1-umumta'lim
maktabi kimyo fani o'qituvchisi
TEL: 998914156214

Annotatsiya: maqolada kimyo fanini o'qitishda zamonaviy metodlarning samarasi, zamonaviy axborot texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy metodlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, elektroliz.

Har bir soha zamonaviy texnologiyalar bilan boyib borayotganligi, XXI asr texnika asri bo'lganligi sababli ham zamonaviy texnologiyalarga bo'lgan talab va qiziqishlar tobora ortib bormoqda.

Kimyo fanini o'qitishda zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishi shubhasiz. Afsuski ko'pgina o'qituvchilar birgina kimyo fanini o'rgatishda emas, balki boshqa fanlardan dars berish jarayonida zamonaviy axborot vositalaridan kamdan kam hollarda foydalanishadi. Zero, tabiiy fanlarni tushunish va tushuntirish bir qancha qiyinchiliklarni tug'diradi. Chunki kimyo fani asosan moddalarning xususiyatlari, tuzilishini o'rganadi. Buni o'quvchilarga yetkazib tushuntirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari va pedagogik ijodkorlik zarur.

O'quv jarayonining sifati faqatgina axborot texnologiyalarini darsga tatbiq qilish bilan chegaralanib qolmay, balki uni pedagogga yordamchi vosita sifatida mavzuni ochib berilishida yordam beradi. Buning uchun pedagog axborot texnologiyalaridan unumli va o'z o'rnida foydalanishni bilmog'i lozim.

Zamonaviy axborot texnologiyalari - bu ma'lumotlarni olish, saqlash, qidirish, qayta ishlash va axborot uzatishdir.

Zamonaviy axborot texnologiyalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

Audio-video, kompyuter, multimedia, kompyuter-konstruktor

O'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni olib kirish:

- Pedagogik metodlarni zamonaviylashishiga;
- Samaradorligini va sifatini oshirishga;
- Masalalar yechish jarayonini qiziqarli va tushunarli bo'lishiga;
- Pedagogik sistemani o'zgarishiga olib keladi.

Kimyo fanida elektroliz jarayonini tushuntirish biroq qiyinroq. Bu mavzuni tushuntirish uchun har xil prezintatsiyalardan, video-darsliklardan, audio-videodan foydalanish samaraliroqdir. O'quvchilarga elektroliz jarayonini tushuntirayotganda ka-tod, anod, elektrolizyor vanna haqida tushunchaga ega bo'lishi uchun uni tasavvur qilishga yordam berish kerak. Shu o'rinda pedagog multimediadan foydalanishi lozim.

Bunda nafaqat pedagogni mavzuni tushuntirishi osonlashadi, balki o'quvchilar mavzuni tushunib olishlari tezlashadi. Dars ham qiziqarli o'tadi. An'anaviy dars o'tilganda o'quvchilar mavzuni faqat eshitibgina tushunishadi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda mavzu tushuntirilsa o'quvchi ham eshitadi, ham ko'radi va tasavvurga ega bo'ladi. Ko'rish orqali miya ham axborotni tez qabul qiladi va xotirasida uzoq vaqtgacha saqlanadi. Bu bilan dars samaradorligi 25-35% ga oshadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda o'quvchilarga elektroliz mavzusi tushuntirilganda dars so'ngigacha sinfdagi aksariyat o'quvchilar mavzuni o'zlashtirib olishadi va savollarga javob berishadi. Elektroliz jarayonlari bo'yicha qiziqib sanoatning qanday sohalarida qo'llanilishi haqida savollar berishadi. An'anaviy tarzda elektroliz mavzusini o'tilganda o'quvchilar tasavvur qila olishlari qiyin kechadi. Darhaqiqat faqatgina bitta elektroliz mavzusida emas, balki kimyo fanining boshqa mavzularini o'rgatishda, bolalarning ongiga sindirishda zamonaviy axborot texnologiyalari eng yaxshi yordamchi vosita hisoblanishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev J va boshqalar. Zamonaviy dars. Toshkent.; 2007
2. Hazratqulov U.M, Usmonboyeva M.N, Rustamova S.S. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. O'quv uslubiy tavsiya/ Toshkent - 2016



ТА’ЛИМ ТИЗИМИГА Е’ТИБОР – КЕЛАЖАККА Е’ТИБОР.

Ro’ziyeva Nilufar Husenovna

Когон туман 1-умумта’лим мактаби

Texnologiya fani o’qituvchisi

Tel: 998907121567

Annotatsiya: maqolada yurtimizda bugungi kunda ta’lim sifatiga qaratilayotgan e’tibor tog’risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: buyuk ajdodlarimiz, ta’lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy metodlar, texnologiyalar, ilg’or usullar

Hozirda mamlakatimiz ta’lim sohasida ulkan yutuqlar qo’lga kiritilmoqda va ayni paytda yurtimizning o’tgan vaqtlarda ya’ni mustamlakachilik yillarida ta’lim sohasiga bo’lgan tahdid hamda qaysidir ma’nodagi rivojlanishlarga bo’lgan e’tibor qaysi darajada ekanligi, albatta, hammaga qiziq hisoblanadi.

Qaysi davlatda ilm - fan taraqqiyotiga keng yo’l ochilsa shu davlat rivojlanadi.

Dunyoni ilm bilan egallash. Yaqin o’tmishga nazar tashlaydigan bo’lsak, mustamlakachilik davrida O’zbekiston hududida sanoqli ta’lim muassasalari bo’lib, ularning aksariyati talab darajasida bo’lmagan. Ba’zi hollarda odamlar savodsiz hatto oralaridan umumiy 11 yillik ta’limni egallamaganlari ham bor edi. Bu hukumatning chuqur o’ylangan nayrangi bo’lib, o’zbek xalqi uchun yod bo’lgan komunistik mafkura bilan millat ongini zabt etishga harakat qilgan. Ammo ularning ko’zlagan rejasi amalga oshmadi, ozodlik ruhi ostida kamol topgan xalqimiz mustaqillik uchun kurash olib bordi va uzoq kutilgan kunga erishdi.

O’sha davrlarda o’quvchilar ongi Vatanimiz tarixining noto’g’ri talqin qilingan hodisalari bilan to’ldirilgan edi. Bunga misol buyuk ajdodlarimiz Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg’inoniy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bahouddin Naqshband, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho’lponlarning asarlarini o’rganilmaslik kabi holatlarni keltirish mumkin. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab har bir sohaga ulkan e’tibor qaratildi, Ayniqsa keyingi 2-3 yil ichida ta’lim sohasida ham tub burilishlar yuz berdi. Yildan yilga yoshlarga ko’rsatiladigan e’tibor ortib bormoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda 10000 ga yaqin umumta’lim muassasasi bo’lib, yosh- larning sifatli ta’lim olishlarida xizmat qilmoqdalar. Eng samarali investitsiya—bu ta’limga qilingan investitsiyadir. Ta’lim tizimini takomillashtirish—yosh avlodning bilimini oshirish, sifat darajasini ko’tarishdir.

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosini jahon ta’limi standartlariga javob bera oladigan ilg’or tajribalarni ommalashtirish hamda ta’lim-tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuqori samaradorlikka erishish yo’lida amaliy faoliyat olib borish tashkil qilmoqda. Hozirgi vaqtda umumiy o’rta ta’lim maktablari o’qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o’quvchilarning ilm olishga bo’lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi ta’lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu - o’qituvchi va o’quvchilarning birgalikda faolligi va o’quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtirok etishidir. Albatta, bu o’rinda o’qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar qo’l kelishi amaliyot ko’rsatib turibdi. Hozirgi zamon har bir fan o’qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o’rni va roliga har tamonlama qarash vazifasini yuklaydi. Buning uchun o’qituvchi ta’lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o’zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi a’nanaviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo’lmog’i lozim.

Xulosa qiladigan bo’lsak, Mamlakatimizda ta’lim taraqqiyoti shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy hamda madaniy ehtiyojlarini ta’minlaydigan ustuvor soha



sifatida qonunan belgilab berdi. Yuqorida aytib o‘tilgan fikr-mulohaza, ma’lumotlar O‘zbekistonda qisqa davr ichida ta’lim sohasida yuksak yutuqlarga erishganini ko‘rishimiz mumkin. Kelgusida hukumatimiz tomonidan ta’lim sohasida ilgari suriladigan izchil islohotlar davomli bo‘lishi, biz kabi yoshlarga ilhom baxsh etib, yanada yuksak marralarni zabt etishimizga imkon, zamin yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. Shavkat Mirziyoyev
2. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi
3. O‘zbekistonda ta’lim statistikasi.



МИЛЛИЙ ТАРБИЯ

Темирова Рукия Бегиевна

Когон туман 1-умумтаълим мактабининг

Технология фани уқитувчиси

Тел: 998914039391

Аннотация: ушбу мақолада тарбия, миллий тарбия, ривожланган давлатларнинг тарбия борасидаги тажрибалари ёритилган.

Калит сузлар: тарбия, миллий тарбия, ривожланган давлатларнинг тарбия борасидаги тажрибалари

Инсоннинг етуклик даражаси уни олган тарбиясида намоён булади. Президентимиз Ш. Мирзиёев таълим тизимига катта эътибор бераётган бир пайтда, таълимни тарбияга узвий боғлиқ эканлигини таъкидлаб ўтди. Биргина таълим тизимига эътибор бермасдан тарбия билан баравар олиб бориш лозимдир.

Аввало, инсон тарбияси у усган мухит, яшаш шароити, олган билими, узи униб усган гушасини намоён этади.

“Тарбия” сузи “миллий тарбия” тушунчасининг таркибий қисми булгани туфайли бу тушунчага ҳам янгича ёндашган ҳолда, ҳолис илмий жихатдан тавсиф бермок лозим. “Тарбия” сузи кенг маъноли суздир. Парвариш қилмок, таълим бермок, одоб ургатиш, меҳрибонлик қилмок, ҳимоя қилиш каби қуп қиррали мазмунга эга .

Ҳ,ар бир миллат ва элатларнинг узини миллий тарбияси, одоб - ахлоқ қоидалари ва таълим бериш тизими мавжуд.

Биз миллий тарбияни Япония ва бошқа мамлакатлар қуламида қуриб чиқамиз ва биз ўзбекларнинг миллий тарбиямизга уқшаш ва фарқли жихатларини такқослаб қурамыз.

Япония оилаларида “япон ҳулқ - атвори” дарси маҳсус, мажбурий утилади. Бу дарсада муомала, одоб - ахлоқнинг энг нозик қирраларигача маҳсус ургатилади, машқ қилдирилади. Жумладан, меҳмон келганда мезбон уни қандай қутиб олиши, эшиқни қанда очиши ва шу қабилар

Биргина Англия давлатини олиб қарайдиган булсақ, ундаги жентльменлар тарбияси эътиборимизни тортади. Англияда айнан шу узғариш жараёни уз замонасининг янги аслқодаси-жентльменини тарбиялаш масаласин қун тартибига қуйди. Янги жентльмен амалий тажрибага эга, ишбилармон, уз мулкини авайлаб асровчи ва энг муҳими - узининг янги сифатларини утмиш аънавалари билан уйғунлаштира олмоги қерак. Янги жентльменларни тарбиялаш гоёсининг асосқиси Ж.Локк ёш жентльменлар ҳисоб - қитоб илмини билиш билан бирга, аънавий қиличқозлик санъатини ҳам яқши эгаллашлари қерак, деб ҳисобланган.

Англиядаги тарбиявий мақсад-жентльменни тарбиялаш гоёси Францияда ҳам қабул қилиниб, узига ҳос тарзда амалга оширилади. Бу қуйидагича таърифланган эди: «Францияда тарбиядан мақсад-узида юқсақ ахлоқий сифатлар, фазилатлар, зиёдқилиқ, соғлом мушоҳадалиқ руҳида тарбияланган ҳушқулқ Французлардир» Германияда маданияй уйғониш даврида амалга оширилган ислохотлар мақтаб, тарбия, мақсадини белқилашда таъсир қурсатиб, унинг илмий давлат сифатида ривожланишига қатта туртки булиб ҳизмат қилади.

Биз Ўзбекларнинг миллий тарбиямиз узининг бой услубий тажрибасига эга. Масалан, “қечирмок” - тарбияланувчиларга тарбиявий таъсир утқизиш мақсадида у йул қуйган ҳато, гуноқини авф этмок усули. “Уйнамок” атамаси - бу бола билан унда ижобий сифатларни ривожлантириш, салбий сифатларни қамайтириш мақсадида йуналтирилган, маълум қоида ва усуллар билан ижро этиладиган йуллар билан уйнаш усули ҳисобланади. Булар ўзбек ҳалқининг уз фарзандларида ижобий фазилатларни ривожлантириш, салбий ҳудқ-атворларни барқараф қилиш мақсадида қулланган ва қуллаётган йул-йуриқлар, ҳаракат тартиблари, тарзлари тизимидир.

Табиатни тарбиялаб булмайд, одамни эса тарбиялаш мумқин. Фарзандингиз тарбияси, ҳулқидан хотирқам булишни истайсизми? Унда ишни тутри тарбия беришдан бошланг. Ахлоқий қоидалар, бурқларни қандай вазиятда, қандай бақаришни машқ қилдиринг. Эртага



фарзандингиз узининг фарзандлик, фукоролик, ватан ва миллат олдидаги бурчларини рисоладагидек бажаришига заррача шубха колмасин.

Унутманг! Агар узингиз тарбияли, интизомли булмасангиз, фарзандингиз хам табияли ва интизомли булмайди.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. Хазраткулов У.М, Усмонбоева М.Н, Рустамова С.С. Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар. Укув-услубий тавсия. Тошкент – 2016.

2. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йуналиши буйича Харакатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Презентининг 2017 йил 7 феврал.



ТРЕБОВАНИЯ К РЕЧИ ПЕДАГОГА И КАЧЕСТВА РЕЧИ

Ахмедов Азамжон Адашбаевич,
учитель русского языка
школы 32 Нарынского района

***Аннотация:** Каждому преподавателю следует определить темп своей замедленной, нормальной и убыстренной речи, чтобы в учебных целях его варьировать. Важно помнить, что оптимальным для слушающих являются темпы их собственного говорения и именно отсюда возникает необходимость межфразовой паузации, чтобы во время паузы, слушающие успевали осмыслить информацию.*

***Ключевые слово:** преподаватель, культура, речь.*

Владение культурой речи – это успех в обществе, авторитет, перспектива, продвижение по работе. И кто как не учитель обязан владеть культурой речи. Речь учителя важна. Речь учителя служит передаче информации слушателям – содержанию и формам педагогической речи. Речь учителя служит образцом, который воспринимает ребенок и по которому он учится строить свою речь. При этом следует помнить, что для ученика речь учителя зачастую является единственным образцом литературной нормы и правильного представления речи вообще. Говоря о чистоте речи учителя, следует отметить такие недочеты и ошибки, как: наличие неоправданного повторения «мышления» слов типа так, так сказать, ну, мне, значит и другие, например, «Мы должны сегодня, так сказать, узнать, чем же отличаются, так сказать, союзы от предлогов. Для этого мы воспользуемся сравнением, чтобы в конце концов сделать вывод, так сказать; «Кто мне вспомнит правило ... Кто прочтет мне ... Скажите мне, как называется это растение? Зачем ты мне написал это предложение?» Мне – не просто лишнее слово.

